

**YURTIMIZDA SO'NGI YILLARDA FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARINING ERKIN FAOLIYAT YURITISHI UCHUN AMALGA
OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

Abdug'offorov Ibroximjon Baxtiyorjon o'g'li

Andijon viloyati Bo'ston tuman prokuraturasi prokuror yordamchisi

abdugofforvibrohim@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'ngi yillarda yurtimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar, fuqarolik jamiyatini davlat boshqaruvidagi ahamiyati va uning boshqaruvdagi ro'lini oshirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, konstitutsiya, jamoat birlashmlari, davlat va jamiyat, siyosiy partiyalar.

**REFORMS THAT ARE BEING IMPLEMENTED IN OUR
COUNTRY IN RECENT YEARS FOR THE FREE ACTIVITY OF CIVIL
SOCIETY INSTITUTIONS**

Abdugoffarov Ibrahimjon Bakhtiyorjon ugli

Assistant prosecutor of Boston district prosecutor's office of Andijan region

abdugofforvibrohim@gmail.com

Abstract: This article reflects on the changes made in recent years for the development of civil society in our country, the importance of civil society in state management and increasing its role in management.

Keywords: *Civil society institutions, non-governmental non-commercial organizations, constitution, public associations, state and society, political parties.*

**РЕФОРМЫ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫЕ В НАШЕЙ СТРАНЕ
ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ ДЛЯ СВОБОДНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

Абдугоффаров Ибрагимджон Бахтиярджон угли

Помощник прокурора Бостонской районной прокуратуры Андижанской области

abdugofforvibrohim@gmail.com

Аннотация: *В данной статье размышляются изменения, произошедшие за последние годы в развитии гражданского общества в нашей стране, значение гражданского общества в государственном управлении и повышение его роли в управлении.*

Ключевые слова: *Институты гражданского общества, неправительственные некоммерческие организации, конституция, общественные объединения, государство и общество, политические партии.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga ko'ra, jamoat birlashmalari, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asoslarini tashkil etadi. Yurtimizda hozirgi kunda fuqarolar huquqlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, tibbiyot, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda 10 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda.

So'ngi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik

talablarga hamda xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yaratildi. Jumladan, ushbu yo‘nalishda 20 dan ziyod qonun, Prezident hujjatlari va hukumat qarorlari qabul qilindi.

Masalan, ayni paytda tadbirkorlik va fermerlik yo‘nalishida 664, sport yo‘nalishida 1 ming 519, nogironlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha 652, yoshlar yo‘nalishida 650, huquqiy-demokratik institutlarni rivojlantirish sohasida 839, madaniyat, tarix va ma’rifat yo‘nalishida 564 NNT faoliyat yuritmoqda¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, ushbu farmonda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda 2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ijrosini ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning shaffof va sog‘lom raqobat tamoyiliga asoslangan tizimini, shuningdek, ijtimoiy foydali dasturlar samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadi va tartibi belgilab berildi.

Shuningdek, ushbu farmon asosida davlat tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash yangi bosqichga ko‘tarildi. Farmonning birinchi bandida fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning quyidagi yo‘nalishlari belgilandi:

¹ <https://adliya.uz/posts/fuqarolik-jamiyati-institutlari-erkin-faoliyat-yur>

jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko'zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda ularning salohiyatidan to'laqonli foydalanish;

fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga ko'maklashish yo'lida ta'sirchan jamoatchilik nazorati olib borilishini rag'batlantirish;

davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish;

fuqarolik jamiyati institutlarining xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini yo'lga qo'yish hamda ularning xorijdagi uyushmalari bilan hamkorligini mustahkamlash;

fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularga o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish².

Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashning demokratik institutsional tizimi yaratilib, xalq deputatlari mahalliy kengashlari va parlament huzurida jamoat fondlari tuzilgan. Masalan, so'ngi yetti yilda yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat byudjetidan 718

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2024-yildagi PF 124-son farmoni. "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon

milliard so‘m mablag‘ ajratilgan. Shu jihatdan ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilyotganligini bilishimiz mumkin. Bu mablag‘lar 2008-2016 yillarga nisbatan solishtirilganda 12 barobar ko‘p ekanligini bilishimiz mumkin.

So‘ngi yetti yilda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari doirasida har bir hududda “Nodavlat notijorat tashkilotlar uylari” tashkil etildi va ularga 350 ta nodavlat notijorat tashkilotlari bepul joylashtirildi.

Shuningdek, so‘ngi uch yil ichida hududiy fondlar orqali 83 milliard so‘mlik 1,6 ming loyiha amalga oshirildi. Bu tajriba ijobiy samara ko‘rsatib, prezident tomonidan sohani rivojlantirishga mas‘ul organlarining qator tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi. Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi.

Davlat organlariga fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbusli ijtimoiy sheriklik loyihalarini bazaviy hisoblash miqdorining ming barovarigacha tanlovlarsiz moliyalashtirish huquqi berildi. Har yili Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosiga fuqarolik jamiyati institutlarini ijtimoiy sheriklik asosida jalb qilish bo‘yicha dastur qabul qilinadigan bo‘ldi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini ommalashtirish va uning tashkil etish tartibini soddalashtirish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga molik sohadagi faoliyatni ommalashtirish maqsadida fuqarolik jamiyati institutlariga bir qancha imtiyozlar taqdim etildi.

Jumladan, davlat grantlari va ijtimoiy buyurtma loyihalari doirasida daromad solig'i va ijtimoiy soliq stavkalari 3 yil muddatga 50 foizga kamaytirildi. Tejalgan maqsadlar loyiha maqsadiga yo'naltiriladigan bo'ldi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab faxriylar, nogironlar, xotin-qizlar va bolalar tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun undiriladigan davlat boji 2 baravarga kamaytirildi. Homiylik tashkilotlarining ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslariga xayriya pulining soliq solinmaydigan miqdori amalda 15 million so'mdan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha oshirildi.

Shunindek, Adliya vazirligiga jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada kengaytirish yuzasidan qonun loyihasini ishlab chiqish topshirildi. Unda jamoatchilik nazoratining ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan ta'sirchan shakllarini joriy qilish ko'zda tutiladi.

Jamoatchilik nazoratining har qanday shaklini amalga oshirish mexanizmi, tartib-taomillari, jamoatchilik nazoratining natijalariga ko'ra yakuniy hujjatlarni rasmiylashtirish, jamoatchilik nazorati ob'ektiga kiritish va ularni ko'rib chiqishning aniq muddatlari va tartibi, davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tartibga solish kabilar ham nazarda tutiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlariga davlat grantlari, subsidiyalari va ijtimoiy buyurtmalarini ajratish bilan aloqador barcha jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan yagona elektron platforma ishga tushirilishi belgilandi.

Platformada keng jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan tanlovlar yo'nalishlarini shakllantirish hamda ularning muhokamasida bevosita ishtirok etish, tanlovlarda ishtirok etish uchun loyihalarni topshirish va davlat

subsidiyasini olish uchun buyurtmalarni yuborish, ularni ko'rib chiqish hamda baholash jarayonlarini kuzatib borish, tanlov ishtirokchilaridan talab etiladigan hujjatlarni elektron platformani davlat organlarining ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilish orqali onlayn olish kabilar o'rin oladi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatlarini davlat boshqaruvidagi ahamiyatini oshirish, uning konstitutsiyaviy huquqiy maqomini mustahkamlash uchun nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarini malakasini oshirish va qayta tayyorlov kurslarini tashkil etish, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini tartibga soluvchi va ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi qonunosti hujjatlarini yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjat shakliga o'tkazish, fuqarolik jamiyati institutlarini royxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish va xorijiy manbalardan pul mablag'larini olish bilan bog'liq munosabatlarni soddalashtirib, byurokratik to'siqlarni bekor qilish lozim.

Fikrimizcha, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ro'li ham doimo o'zining dolzrliligini saqlab qolgan. Siyosiy partiyalarning davlat va jamiyatdagi rolini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining mahalliy hokimliklardan to'laqonli mustaqilligini ta'minlash lozim.

Tegishli qonun normalariga o'zgartirishlar kiritish orqali fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi bevosita ishtirokini yangi bosqichga ko'tarib, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ta'sirchanligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 235-b.
2. Narimanov B.A. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish: yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 202375-b.
3. Ширококов С.А. Конституционное право человека и гражданина на обращение: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.02. Екатеринбург, 1999. С. 14; Он же. Конституционное право человека и гражданина на обращение: учеб. пособие. Пермь, 2002. С. 6.
4. Черкесов К.А. Конституционное право на обращение в органы публичной власти в государствах - членах СНГ и странах Балтии: сравнительно-правовое исследование: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.02. М., 2010. С. 9.
5. Нилов Д.Г. Обращения граждан: понятие и виды // Проблемы укрепления законности и правопорядка: наука, практика, тенденции. 2010. № 3. С. 12.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 01.05.2023-yil.
7. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 14.04.1999, 763-I son.
8. “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 15.02.1991, 223-XII-son.

9. “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni 26.08.2024